



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№4(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 506 sahifa,
2-aprel, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyuu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Yangi O'zbekistonning mintaqaviy va global geosiyosiy pozitsiyasi: milliy o'zlik va media reprezentatsiya tahlili	16
Salim Doniyorov	
Axborot kommunikatsiya texnologiyalari vositasida o'quvchilarning adabiy tahlil kompetensiyasini shakllantirish	21
Djo'rayev Yorqin Xolnizozovich, Xoldarova Gulchehra Tajibayevna	
Adabiy tahlil kompetensiyasini shakllantirishda elektron darsliklar va multimedia vositalaridan foydalanish.....	26
Djo'rayev Yorqin Xolnizozovich	
Ta'limdagi hurfikrlikni rivojlantirishning pedagogik asoslari.....	29
Yunusov Dilshod Raxmatovich	
Boshlang'ich ta'limda kompetensiyaviy yondashuv asosida o'quvchilarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	32
Aliqulova Habiba Bahranovna	
Ayollar boksida jismoniy tayyorgarlikning yosh qizlar salomatligiga ta'siri	36
Majidov Ruslan Rustam o'g'li, Komilova Ismigul O'ktamjon qizi	
Talaba-yoshlarda internet risklarning oldini olishning pedagogik modeli	41
Muradova Maftuna Komilovna, Mamadaliyeva Umida Isroiljonovna	
Диагностика креативности студентов педагогических вузов в процессе изучения специальных дисциплин.....	44
Уразова Марина Батыровна, Соибова Толифа Дилмуродовна	
STEAM yondashuvi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetentlikni shakllantirishning metodik xususiyatlari.....	49
Tashibekova Munajat Xoshimovna	
Mariya Montessori ta'limida bolalarning mustaqilligini va ijodiy faoliyatini rivojlantirishning pedagogik-didaktik shart-sharoitlari.....	53
Asqarova Ma'mura Sadriddinovna	
O'spirinlik yoshida namoyon bo'ladigan agressiv xulqning psixologik xususiyati	59
Atajanova Xurjon Pirnazar qizi	
O'zbekiston jurnalistikasining rivojlanishida jadidlarning o'rni: jurnalistikada yangi trend	64
Murtozayeva Nigora Murtoza qizi	
Virtual ta'lim texnologiyasining ta'lim jarayonini takomillashtirishdagi ahamiyati.....	67
Muxsiyeva Aziza Shamsitdinovna	
Kelajakdagi o'qituvchilarning pedagogik kreativligini ta'limiy o'yinlar orqali rivojlantirish yo'llari	69
N. A. Musayeva	
Talabalarda lisoniy tafakkurni shakllantirishga psixolingvistik yondashuvning didaktik tamoyillari	76
Odiljonova Kamola Abduvosit qizi	
Strategies for Overcoming Difficulties in Using Authentic Materials in English Language Teaching	81
Qosimov Jaloliddin Abduvali o'g'li	
Oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'limni tashkil etishning pedagogik imkoniyatlari	84
Qurbonova Buzaynab Nurmuxammadiyevna	
Inspektor-psixologlarda ijtimoiy-psixologik kompetentlikning kasbiy faoliyatdagi ahamiyati	87
Raxmanova Dilnoza Farmanovna	
Qo'ng'iro't tumani toponimlarining leksik-semantik va genetik xususiyatlari	90
Shamshaddinova Saodat Saparbayevna	
Variativ yondashuv asosida 5–9-sinf o'quvchilarida valeologik madaniyatni rivojlantirishning didaktik modeli va metodik ta'minoti	93
Shamuratov Asqar Abdullayevich	



The Structural Composition and Developmental Stages of Critical Thinking Skills.....	98
<i>Shuxratjon Ismoiljonov Boymirza o'g'li</i>	
Yosh rahbar kadrlarni lavozimlarga tayinlashning psixologik xususiyatlari.....	106
<i>Sobitov Otabek</i>	
O'zbekistonda erta turmush qurish masalasi va uning psixologik tahlillari.....	111
<i>Sodiqova Gulbarno Odiljon qizi</i>	
Adaptiv sportning inklyuziv ta'lim tizimida alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchilarning jismoniy va funksional rivojlanishidagi ahamiyati.....	114
<i>Xasanova Sarvinov To'liqinjon qizi</i>	
Yosh futbolchilarda texnik mahoratni rivojlantirishda differentsiallashgan mashg'ulotlar modelini qo'llash samaradorligi	118
<i>Zayniddinov Tojiddin Baxriddinovich</i>	
Фразеологизмы как носители культуры: проблемы перевода и методы обучения	123
<i>Хамидова Гулноза Турсунбой кизи</i>	
Talabalarni kreativ yondashuv asosida tarbiyaviy–innovatsion faoliyatga tayyorlash jarayonlari.....	127
<i>Adizova G. M.</i>	
Iqtidorli bolalarni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash	131
<i>Ismoilova Adolat Anvarovna</i>	
STEAM – ta'lim texnologiyasi asosida o'quvchilarning fazoviy tasavvurlarini rivojlantirish metodikasi	134
<i>So'fiboyeva Gulchehra Mamurjonovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy ko'nikmalar va kompetentlikni shakllantirishning pedagogik asoslari.....	138
<i>Fayzullayeva Xovoxon Xayrullo qizi</i>	
Inklyuziv ta'limga muhtoj bolalar bilan ishlashda tarbiyachining roli.....	142
<i>Mansurova Lobar Luqmon qizi, Boqiyeva E'zoza Mashrab qizi</i>	
Rivojlanishida nuqsoni bor bolalarni ta'lim-tarbiyalashning ilmiy-pedagogik asoslari.....	146
<i>Tojiboyeva Osiyoxon Alisher qizi</i>	
Xalqaro ta'lim tashkilotlari faoliyatining nazariy asoslari.....	150
<i>Abdusamadova Aziza Kamoliddin qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarni ijtimoiy texnologiyalar asosida ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash tizimi sifatida.....	153
<i>Shanazarov Otabek</i>	
Maktabgacha ta'limda STEAM yondashuvini loyiha asosida joriy etishning pedagogik strategiyalari	158
<i>Radjapova Xuzra Tirkashevna, Abdullayeva Sarviniso</i>	
Matematika ta'limida modellashtirishning psixologik va metodik asoslari: disum loyihasi tahlili.....	161
<i>Xaydarov Xurshid Ismatovich</i>	
Darsdan tashqari mashg'ulotlarda gandbolchilarning tezkorligini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	166
<i>Ismatullayeva Zuhra Rustam qizi</i>	
Osiyo xalq o'yinlari asosida jismoniy tarbiya jarayonini samarali tashkil etishning pedagogik shartlari	170
<i>Abdullayev Yashnarjon Mahkamovich</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning innovatsion kompetentligini shakllantirishda klasterli ta'lim muhitining imkoniyatlari.....	173
<i>Abduraxmanov M. B.</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida tanqidiy fikrlash.....	178
<i>Chinaliyeva Ayjamal Baxitjanovna</i>	
Talabalarda raqamli ta'lim madaniyatini rivojlantirish.....	181
<i>Eshqurbonova Nafisa Bahodir qizi</i>	
Blended Educational Technologies in Higher Education: A Systematic Analysis of Foreign Research.....	183
<i>Fozilova Maxina Adashevna</i>	
Voyaga yetmaganlarda deviant xulq shakllanishida ijtimoiy-psixologik omillarning roli.....	188
<i>Galdiyeva Mehribon Durdiyevna, Saydazimov Alisher Nurali o'g'li</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Boshlang'ich tayyorlov guruhida ulotqirish texnikasi elementlarini o'rgatish samaradorligi.....	191
<i>Hayitmurodova Nasiba Abdusalimovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida tarbiya fanini o'qitishning metodik tayyorgarligini takomillashtirish zaruriyati.....	197
<i>Inoyatova Zulfiya Xamdamovna</i>	
Talabalarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga jalb etishning metodologik asoslari.....	199
<i>Karimova Madinabonu Dilshodbek qizi</i>	
Kompetentligini baholash mezonlari va indikatorlarini ishlab chiqish	203
<i>Kayumov Oybek Achilovich</i>	
Kasbiy refleksiya asosida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini rivojlantirish.....	209
<i>Miraxmedova Mubina Mirxalil qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutq ko'nikmalarini rivojlantirish.....	211
<i>Nisanbayeva Akmaral Kaldibayevna</i>	
Maxsus ta'lim dasturlari orqali iqtidorli talabalarining ijodiy salohiyatini rivojlantirish	214
<i>Rayimova Shahlo Sobirjon qizi</i>	
STEAM ta'limida ijtimoiy intellektni rivojlantirish metodlari	217
<i>Toshev Elbek Choriyevich</i>	
Innovatsion texnologiyalar va ularning tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlash tizimidagi roli.....	223
<i>Usmanov Botir Allaberdiyevich</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning ijtimoiy kompetensiyasini rivojlantirishda volontyorlik faoliyatining ahamiyati.....	227
<i>Xalilova Dilnoza Furkatovna</i>	
Boshlang'ich sinflarda robototexnikaning ahamiyati va o'rni	230
<i>Xodiyeva Dilrabo Pirimovna</i>	
Working With Visual AIDS in Teaching English in Primary Education	233
<i>Yunusova Nodira Akhmadjanovna</i>	
Teatr texnologiyalarini maktabgacha ta'limga integratsiya qilishning pedagogik shartlari	237
<i>Abdullayeva Aziza Abdurazzoq qizi, Salimova Dilmira Farxodovna</i>	
The Psychological Impact of Social Media on Youth	242
<i>Dilfuza Qarshiboyeva</i>	
Maktab direktori nutq etiketi – ta'lim menejmentida jamoatchilik bilan samarali muloqot asosi	246
<i>Islamova Dilfuza Dilshodovna</i>	
Dizartriyali bolalar monologik nutqini innovatsion texnologiyalar orqali rivojlantirish.....	250
<i>Pardayeva Muxlisa</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishida bilish jarayonlarning ahamiyati.....	257
<i>Xaydarova Umidaxon Baxromjon qizi</i>	
Enhancing the Professional Competence of English Language Teachers.....	259
<i>Karimova Dilshoda Sodiqjon qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda montessori metodi bo'yicha sezgir davrlar	264
<i>Tojiakhmedova Maftuna Umarjon qizi</i>	
“Personal learning assistant” vositalari asosida bo'lajak pedagoglarni tayyorlash tizimidagi zamonaviy tendensiyalar tahlili.....	268
<i>Muradova Maftuna Komilovna, Turobova Ro'zoy Bekmurotovna, Xayrullayev Mo'minbek Anvar o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida adabiy-nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi.....	272
<i>Ravshanova Dildora Sagdullayevna</i>	
Raqamli ta'lim sharoitida elektron axborot-ta'lim muhitining mohiyati va tarkibiy tuzilmasi.....	279
<i>Temurov Sobirjon Yo'ldoshevich</i>	
Zamonaviy ta'lim menejmentida innovatsion yondashuvlarning ahamiyati (boshlang'ich ta'lim misolida) ..	283
<i>Pardaboyev Doston</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oilaning hamkorligida qadriyatlar tarbiyasining amaliy asoslari	286
<i>Xaydarova Mavluda Mo'ydinjon qizi</i>	



Zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari integratsiyasi asosida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish bosqichlari va samarali shakllari.....	292
<i>G'oziyeva Mohlaroyim Qodirxon qizi</i>	
Alohida ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan bolalarning (aqliy nuqson) ovqatlanish tartibi	295
<i>Sh. M. Ro'ziyeva</i>	
Boshlang'ich sinflarda ona tili darslarida imlo savodxonligini oshirishda geymifikatsiya o'yini orqali samarali tashkil etish	299
<i>Mergenbaeva Asiya Erkebaevna</i>	
Musiq a o'qituvchisining pedagogik muloqatining ta'lim jarayonidagi ahamiyati	304
<i>S. M. Raxmonberdiyeva</i>	
Ijtimoiy-maishiy hayotga yo'naltirish darslarida zaif eshituvchi o'quvchilarning nutqini rivojlantirish	307
<i>Abdulxamidova Gulnoza</i>	
Ispaniya davlati ijtimoiy hayoti, madaniyati va o'ziga xos ta'lim tizimi	311
<i>Umarova Malika Xisabidinovna, Sabirova Nodira Ibrohimovna</i>	
Ertaklardagi so'zlardan foydalangan holda nutqi rivojlanmagan bolalarda muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish metodologiyasi	316
<i>G'opporova Mahliyoxonim</i>	
Tarbiya fanida hadislar va milliy qadriyatlarni integratsiya qilishning pedagogik imkoniyatlari	319
<i>Axmedov Boburjon Vasikovich</i>	
Chaqiriqqacha harbiy ta'lim tizimida o'quv-biluv kompetensiyalarini rivojlantirishning innovatsion yondashuvlari	324
<i>Mirzayev Shavkat Turdibayevich</i>	
Mustaqil ta'lim olish faoliyati tushunchasining pedagogik mohiyati va tarkibiy tuzilmasi (fizika fani bo'yicha).....	328
<i>Esanmurodov Otamurod Boboqand o'g'li</i>	
Oliy ta'limda immersiv yondashuvning mohiyati.....	333
<i>Muradova Maftuna Komilovna, Jontemirova Nozima Abdijabbor qizi</i>	
Yengil atletika mashg'ulotlari tizimida sportchilarning psixologik tayyorgarligini shakllantirish va rivojlantirishning ilmiy-pedagogik asoslari.....	337
<i>Yigitaliyev A. F.</i>	
Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasida o'quvchilarning harakat faolligini rivojlantirishning zamonaviy pedagogik mexanizmlari.....	343
<i>D. R. Abdusalomov</i>	
Futbolchilarni tayyorlash jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llashning samaradorligi...	348
<i>Mirbabayev Muzaffar Ismatillayevich</i>	
Empirik tushunchalar va ularning hospital pedagogikadagi pedagogik-psixologik roli	353
<i>Sapayeva Mavluda Shanazarovna</i>	
Ayollarga nisbatan zo'ravonlikka qarshi kurash va huquqiy himoya.....	357
<i>Ibragimova Feruza Bahodirxonovna</i>	
Integrativ yondashuv asosida kongruentlik kompetensiyasini shakllantirishga ta'sir etuvchi omillar.....	362
<i>Kamalova Dilobar Tairovna</i>	
Og'ir atletikachilarning ko'p yillik tayyorgarlik jarayonini tashkil etish	366
<i>Raximov Farxod Maxmudovich</i>	
Haqiqiy materiallardan foydalangan holda o'qishni o'rgatish	370
<i>Axmedov Husen Uzairovich</i>	
Maktabgacha ta'limda innovatsion va fiziologik yondashuvlarning o'ziga xos xususiyatlari.....	376
<i>Ruziyeva Gulsara Temirqulovna</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida talaba-yoshlarning jismoniy tarbiyasi.....	380
<i>Nazarov Zokir Abdurahmonovich</i>	
Tafakkur va mantiqiy fikrlash bo'lajak pedagog shaxsining nutq madaniyati omili sifatida	383
<i>A. Sh. Jumayev</i>	
Bo'lajak musiqa o'qituvchilarida turizm vositasida tolerantlikni rivojlantirish pedagogik muammo sifatida.....	386
<i>Abdumannatova Aziza Abdumajit qizi</i>	

Zamonaviy didaktik vositalar asosida talabalarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishning ilmiy-nazariy asoslari.....	390
<i>Asobayeva Noila Samatovna</i>	
Axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatda qo'llash" fanidan amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini samarali tashkil etish	395
<i>Axmedova Zebixon Siddikovna</i>	
Talaba shaxsini ma'naviy-axloqiy tarbiyalashga qo'yilgan pedagogik talablar	399
<i>Boliyev Uchqun Ismatovich</i>	
Translation of Phraseological Units in Mass Media Texts.....	402
<i>Eshmurodova Ziyodaxon Urinbayevna</i>	
Phraseologisms in Modern Russian: A Corpus-Based Analysis of Structural, Semantic, and Functional Dynamics	405
<i>Farkhod Kholmatov</i>	
Yosh sportchilarda sprinterlik qobiliyatlarini rivojlantirishda o'yin uslubidagi mashqlarning o'rni.....	413
<i>G'oibov Yusufali Buxoraliyevich</i>	
Imitatsion mashqlarni nutqni avtomatizatsiyalash jarayonida qo'llash metodikasi	417
<i>G'aniyeva Muhabbat Lutfullayevna</i>	
1879-1894-yillarda yevropa va aqshdagi asos soluvchi laboratoriyalar evolyutsiyasi orqali eksperimental psixologiya genezisining qiyosiy-tarixiy tahlili.....	420
<i>Haydarov Farhod Ilnazarovich</i>	
Maktab direktori nutq etiketi – ta'lim menejmentida jamoatchilik bilan samarali muloqot asosi	423
<i>Islamova Dilfuza Dilshodovna</i>	
Bolalarda gigiyeniya qoidalarini o'rgatishning pedagogik ahamiyati	427
<i>Kalkonova Lutfiya Yusufovna, Safarova Qizlarxon</i>	
Kasbiy refleksiya va portfolio metodining ta'lim jarayonidagi ahamiyati	430
<i>Ismoilova Adolat Anvarovna, Kamoliddinova Mahliyoixon Zohidjon qizi</i>	
Практическая работа по развитию логического мышления учащихся начальных классов через дидактические игры	433
<i>Отажонов Ж. М., Мамарасулова М. А.</i>	
Umumta'lim maktablarida "tarbiya" fanini o'qitish jarayonida mavjud muammolar, ularning sabablari va takomillashtirish yo'llari.....	436
<i>Mamirova Shaxnoza Xudoyqulovna</i>	
Word Formation and Vocabulary Enrichment in Modern English and Uzbek Languages	440
<i>Muminova Feruza Muratdjanovna</i>	
Nodavlat ta'lim tashkilotlarining maktabgacha ta'lim tizimidagi o'rni va rivojlanish tendensiyalari	443
<i>Muminova Nargiza Sabitdjanovna</i>	
Shaxs taraqqiyotining turli bosqichlarida refleksiyaning rivojlanishi	447
<i>N. I. Xalilova</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda inklyuziv kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik asoslari	450
<i>Omanqulova Shohida Nematillo qizi</i>	
Bo'lajak pedagoglarda gender madaniyatni shakllantirishda milliy qadriyatlar va zamonaviy yondashuvning uyg'unligi	455
<i>O'tkirova Zuhaxon Ahmedjanovna</i>	
Developing Listening and Speaking Skills in Middle School	458
<i>Rakhmonova Dilrabokhon Salokhiddin kizi</i>	
Bolalarda gigiyena qoidalarini o'rgatishning pedagogik ahamiyati	461
<i>Kalkonova Lutfiya Yusufovna, Safarova Qizlarxon</i>	
Avlodlar nazariyalari haqidagi mulohazalarning nazariy tahlili: baby boomerlar, X, Y, Z avlodlari.....	464
<i>Umarova Sitora Muxlisovna, Sharifova Mahtob Murodjonovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslari	467
<i>Abrorxonova Kamolaxon Abrorxon qizi, Sofoyeva Oysha Davlatyorovna</i>	
Boshlang'ich sinflarda arifmetik amallarni o'rgatishning samarali metodlari.....	470
<i>Solijonova Mavluda Zokir qizi</i>	



Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari.....	472
<i>Toxirov Botirjon G'ofurjon o'g'li</i>	
Chaqiriqqacha harbiy ta'limda talabalarning harbiy ko'nikmalarini shakllantirishda psixologik omillarning o'rni.....	477
<i>Tursunov Shaxzod Ramazonovich</i>	
Bolalarning jismoniy faolligini oshirish va jismoniy rivojlantirish bo'yicha noan'anaviy jismoniy mashqlarning ahamiyati	480
<i>Xalmatova Nasiba Bozorboyevna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ekologik tafakkurni rivojlantirish muammolari	485
<i>Yaxshiboyeva Nargiza Rustamqulovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-bilish faolligini rivojlantirishda bolalar adabiyotidan foydalanish ..	488
<i>Yuldoshova Mehriniso Ochildiyevna</i>	
Hosila va uning tatbiqlarini o'rgatishda zamonaviy yondashuvlar	491
<i>Absamatov Zuxriddin Axmad o'g'li</i>	
Развитие речи у детей как ключевой фактор формирования личности.....	496
<i>Дустова Дилдора Собиржановна</i>	
Boshlang'ich sinflarda geometrik tasavvurlarni shakllantirish metodikasi	498
<i>Imamova Nasiba Xurramovna</i>	
Дидактические основы подготовки будущих педагогов к лекционной деятельности.....	501
<i>Нодира Азаматова</i>	

ZAMONAVIY DIDAKTIK VOSITALAR ASOSIDA TALABALARNING KASBIY TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

UDK: 378.147:005.336.2

Asobayeva Noila Samatovna

Olmaliq davlat texnika instituti, xotin-qizlar psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy didaktik vositalar asosida talabalarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish masalalarining ilmiy-nazariy asoslari yoritilgan. Tadqiqotda an'anaviy va zamonaviy didaktik yondashuvlarning solishtirma tahlili amalga oshirilgan, raqamli texnologiyalar, interaktiv usullar va virtual muhitlarning talabalar kasbiy kompetentligiga ta'siri o'rganilgan. Maqolada Olmaliq davlat texnika institutida o'tkazilgan empirik tadqiqot natijalari taqdim etilgan bo'lib, innovatsion didaktik vositalarning qo'llanilishi talabalarning kasbiy tayyorgarlik darajasini sezilarli darajada oshirishi isbotlangan. Kasbiy ta'limdagi psixologik omillar, motivatsion tarkibiy qismlar va gender xususiyatlari ham tadqiqot doirasida ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: didaktik vositalar, kasbiy tayyorgarlik, raqamli texnologiyalar, interaktiv ta'lim, kompetentlik, innovatsion ta'lim, psixologik omillar, kasbiy kompetentlik.

Abstract: This article highlights the scientific-theoretical foundations of improving students' professional training based on modern didactic tools. The study conducts a comparative analysis of traditional and modern didactic approaches, examining the influence of digital technologies, interactive methods, and virtual environments on students' professional competence. The article presents the results of an empirical study conducted at the Almalyk State Technical Institute, proving that the use of innovative didactic tools significantly increases the level of students' professional training.

Key words: didactic tools, professional training, digital technologies, interactive learning, competence, innovative education.

Аннотация: В данной статье освещены научно-теоретические основы совершенствования профессиональной подготовки студентов на основе современных дидактических средств. В исследовании проведён сравнительный анализ традиционных и современных дидактических подходов, изучено влияние цифровых технологий, интерактивных методов и виртуальных сред на профессиональную компетентность студентов. В статье представлены результаты эмпирического исследования, проведённого в Алмалыкском государственном техническом институте, доказывающие, что применение инновационных дидактических средств значительно повышает уровень профессиональной подготовки студентов.

Ключевые слова: дидактические средства, профессиональная подготовка, цифровые технологии, интерактивное обучение, компетентность, инновационное образование.

KIRISH

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini isloh qilish, ayniqsa oliy ta'limda kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Prezident Sh. Mirziyoyevning "Ta'lim va fan sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari hamda "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi ta'lim muassasalarida zamonaviy didaktik vositalarni joriy etishni talab qilmoqda. Texnik oliy ta'lim muassasalarida, xususan texnika institutlarida talabalar kasbiy tayyorgarligi nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko'nikmalar va kasbiy kompetentliklarni ham o'z ichiga olishi lozim.

Didaktik vositalar – bu o'quv jarayonini tashkil etish, ta'lim samaradorligini oshirish va kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish uchun qo'llaniladigan barcha pedagogik resurslar, texnologiyalar va metodlar majmuidir. An'anaviy didaktik vositalar (darslik, ko'rgazmali qurollar, laboratoriya jihozlari) zamonaviy raqamli vositalar (elektron o'quv resurslari, virtual laboratoriyalar, simulyatorlar, interaktiv platformalar) bilan boyib bormoqda.



Psixologik nuqtai nazardan, zamonaviy didaktik vositalar talabalarning kognitiv faolligini, o'z-o'zini boshqarish qobiliyatini va kasbiy motivatsiyasini kuchaytirish imkoniyatini beradi. Ayniqsa, xotin-qizlar ta'limida zamonaviy vositalar gender stereotiplarini bartaraf etishda muhim rol o'ynaydi.

Texnik oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy didaktik vositalarni qo'llashning ilmiy-nazariy asoslari yetarlicha ishlab chiqilmagan. Mavjud tadqiqotlar ko'proq umumiy pedagogiy aspektlarga qaratilgan bo'lib, kasbiy tayyorgarlikning psixologik-pedagogik mexanizmlarini yangi didaktik vositalar kontekstida o'rganish zaruriyati sezilmoqda.

Tadqiqot maqsadi – zamonaviy didaktik vositalar asosida talabalarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishning ilmiy-nazariy asoslarini o'rganish va empirik jihatdan asoslash.

Tadqiqot vazifalari:

- zamonaviy didaktik vositalar tushunchasini va ularning tasnifini ishlab chiqish;
- kasbiy tayyorgarlik tizimida didaktik vositalarning ahamiyatini nazariy jihatdan asoslash;
- zamonaviy didaktik vositalarning talabalar kasbiy kompetentligiga ta'sirini empirik o'rganish;
- Olmaliq davlat texnika institutida zamonaviy didaktik vositalarni qo'llash samaradorligini baholash.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Didaktik vositalar nazariyasi tarixi pedagogika fanining rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq. Buyuk pedagog Ya.A. Komenskiy o'zining "Buyuk didaktika" asarida birinchilardan bo'lib ko'rgazmallik prinsipini ilgari surgan va ta'limda moddiy vositalarning ahamiyatini asoslab bergan. Keyinchalik I.G. Pestalotssi, A. Disterveg va K.D. Ushinskiy o'quv jarayonida didaktik vositalarning o'rniga alohida e'tibor qaratdilar.

Zamonaviy pedagogikada didaktik vositalar muammosi L.S. Vigotskiyning madaniy-tarixiy nazariyasi (1978), Bloom taksonomiyasi (1956) va konstruktivistik ta'lim nazariyasi (J. Piaje, J. Dyui) asosida yangicha talqin qilinmoqda. Vigotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" kontseptsiyasi zamonaviy raqamli vositalar orqali talabalar potentsialini rivojlantirish uchun kuchli nazariy zamin yaratadi.

Raqamli texnologiyalar va ta'lim samaradorligi sohasidagi xorijiy tadqiqotlar (Selwyn, 2011; Prensky, 2012; Siemens, 2005) zamonaviy "raqamli avlod" talabalarini tayyorlashda innovatsion didaktik vositalarning zarurligini ta'kidlaydi. Siemensning "Konnektivizm" nazariyasi (2005) raqamli muhitda bilimlarning tarqoq tarzda tashkil topishini va zamonaviy ta'lim vositalarining bu jarayondagi markaziy rolini ta'riflaydi.

O'zbekiston olimlari orasida B.X. Yo'ldoshev, Q.R. Holiqov, N.N. Azimova, F.R. Yusupova kabi olimlarning didaktika va pedagogik texnologiyalar sohasidagi tadqiqotlari alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqotlar milliy ta'lim tizimida zamonaviy vositalarni joriy etishning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

Kasbiy ta'limda psixologik omillar masalasini D.B. Elkonin, V.V. Davydov (rivojlantiruvchi ta'lim nazariyasi), shuningdek, A.N. Leontev (faoliyat nazariyasi) asarlarida keng yoritilgan. Bu nazariyalarga ko'ra, kasbiy kompetentlikni shakllantirish faol, maqsadga yo'naltirilgan o'quv faoliyati orqali amalga oshiriladi va zamonaviy didaktik vositalar bu faoliyatni samarali tashkil etish imkonini beradi.

Gender aspekti bo'yicha tadqiqotlar (OECD, 2021; UNESCO, 2023) texnik va muhandislik yo'nalishlarida xotin-qizlarning kasbiy ta'limida zamonaviy raqamli vositalarning ahamiyatini ko'rsatadi. Interaktiv va vizual didaktik vositalar xotin-qizlarning texnik fanlarga qiziqishini oshirishga, stereotipik to'siqlarni bartaraf etishga yordam beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot 2022–2024 yillarda Olmaliq davlat texnika institutida (ODTI) o'tkazildi. Tadqiqotda ishtirok etuvchilar sifatida institutning texnik yo'nalishlari bo'yicha o'qiyotgan 1–3-kurs talabalarini tanlandi. Umumiy tanlanma hajmi – 240 nafar talaba (120 nafar eksperimental guruh, 120 nafar nazorat guruh). Eksperimental guruhda 58 nafar qiz va 62 nafar erkak talaba, nazorat guruhida esa 55 nafar qiz va 65 nafar erkak talaba ishtirok etdi.

Tadqiqotda quyidagi metodlar qo'llanildi:

1. **Nazariy metodlar:** ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, didaktik vositalar va kasbiy tayyorgarlik tushunchalarini taqqoslashtirish, tizimli tahlil, sintez va umumlashtirish.
2. **Empirik metodlar:** kuzatish, so'rovnoma, test, intervyu, pedagogik eksperiment (aniqlash, shakllantirish, nazorat bosqichlari), mahsuldorlik tahlili.

- Psixodiagnostik metodlar:** kasbiy motivatsiyani o'lchash (Zamfir shkalalari, modifikatsiyasi – Rean), kasbiy o'z-o'zini baholash (Rosenberg shkalalari), kognitiv qobiliyatlar testi (Ravenna progressiv matritsalar).
- Statistik metodlar:** SPSS 25.0 dasturi yordamida St'yudent t-testi, dispersiya tahlili (ANOVA), korrelyatsion tahlil, Pirson korrelyatsiya koeffitsienti hisoblanishi amalga oshirildi.

Eksperimental guruhda o'quv jarayoni zamonaviy didaktik vositalar (elektron ta'lim platformalari, virtual laboratoriyalar, multimedia resurslar, interaktiv simulyatorlar, gamification elementlari) yordamida tashkil etildi. Nazorat guruhida esa an'anaviy ta'lim metodlari qo'llanildi. Ikkala guruhda ham bir xil o'quv dasturi va bir xil malakali o'qituvchilar bo'lgan.

Zamonaviy didaktik vositalar sifatida quyidagilar qo'llanildi:

- Moodle LMS (Learning Management System) platformasi;
- 3D simulyatsiya va virtual laboratoriya dasturlari (LabVIEW, PhET Interactive Simulations);
- interaktiv doskalar va multimedia ta'lim resurslari;
- amaliy loyihalash uchun CAD/CAM dasturlar (AutoCAD, SolidWorks);
- kasbiy kompetentliklarni baholash uchun elektron portfolio tizimi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Aniqlash eksperimentida eksperimental va nazorat guruhlar o'rtasida kasbiy tayyorgarlik darajasida statistik jihatdan sezilarli farq kuzatilmadi ($t = 0.87$; $p > 0.05$). Bu ikki guruhning boshlang'ich sharoitda teng ekanligini tasdiqladi.

Shakllantirish eksperimenti (4 semestr, 18 oy davomida) natijalariga ko'ra, eksperimental guruhda kasbiy bilimlar darajasi 31,4% ga, amaliy ko'nikmalar 43,6% ga va kasbiy motivatsiya 27,8% ga oshdi. Nazorat guruhida esa mos ko'rsatkichlar mos ravishda 12,1%, 18,3% va 9,2% ni tashkil etdi.

Nazorat eksperimenti ma'lumotlari shuni ko'rsatdiki, eksperimental guruhdagi talabalar nazorat guruhiga nisbatan barcha kasbiy kompetentlik ko'rsatkichlari bo'yicha statistik jihatdan yuqori natijalarni ko'rsatdi ($t = 4.21-6.78$; $p < 0.001$). Xususan:

- Kasbiy bilimlarni qo'llash qobiliyati:** eksperimental guruh – 84,3%, nazorat guruh – 61,7% (farq statistik jihatdan muhim, $p < 0.001$);
- Muammoni hal etish ko'nikmasi:** eksperimental guruh – 78,6%, nazorat guruh – 54,2% ($p < 0.001$);
- Guruh hamkorligi va kommunikativ ko'nikmalar:** eksperimental guruh – 82,1%, nazorat guruh – 63,4% ($p < 0.01$);
- Kasbiy motivatsiya darajasi (Zamfir shkalalari):** eksperimental guruh – 4,32 ball (5 ballik tizimda), nazorat guruh – 3,54 ball ($p < 0.05$).

Gender tahlili shuni ko'rsatdiki, zamonaviy didaktik vositalarning qo'llanilishi qiz talabalar orasida kasbiy motivatsiyaning oshishiga alohida ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Eksperimental guruhdagi qiz talabalar kasbiy motivatsiya ko'rsatkichi bo'yicha nazorat guruhdagi qiz talabalardan 32,4% ga yuqori bo'ldi ($p < 0.01$). Bu ko'rsatkich erkak talabalar uchun 21,6% ni tashkil etdi.

Virtual laboratoriyalardan foydalanish kasbiy ko'nikmalar shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Amaliy topshiriqlarni bajarish vaqti eksperimental guruhda o'rtacha 42,3% ga qisqardi, topshiriqni to'g'ri bajarish ko'rsatkichi esa 28,7% ga oshdi. Gamification elementlarini qo'llash (reytinglar, mukofotlar, musobaqa elementlari) o'quv jarayoniga ishtiroki faolligini 56,8% ga oshirdi.

O'quv yuki va stress darajasi kuzatilganda, zamonaviy didaktik vositalardan foydalanuvchi talabalar orasida o'quv stressining 19,4% ga kamayishi qayd etildi (Kessler Psychological Distress Scale, K10). Bu holat psixologik farovonlik va kasbiy tayyorgarlik o'rtasidagi ijobiy korrelyatsiyani tasdiqladi ($r = 0.64$; $p < 0.001$).

Tadqiqot natijalarini tahlil qilganda, zamonaviy didaktik vositalarning talabalar kasbiy tayyorgarligiga multi-faktorial ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Bu ta'sir uchta asosiy mexanizm orqali amalga oshadi: kognitiv, motivatsion va faoliyat mexanizmlari.

Kognitiv mexanizm jihatidan, zamonaviy didaktik vositalar (virtual laboratoriyalar, 3D simulyatsiyalar) murakkab texnik tushunchalarni vizuallashtirish orqali kognitiv yukni kamaytiradi (Sweller, 1988). Bu esa tala-



balarning kasbiy bilimlarni chuqurroq o'zlashtirishiga yordam beradi. Vigotskiyning "yaqin rivojlanish zonasini" kontseptsiyasi nuqtai nazaridan, interaktiv vositalar talabaniing hozirgi bilim darajasi bilan potentsial darajasi o'rtasidagi masofani qisqartiradi.

Motivatsion mexanizm nuqtai nazaridan, gamification elementlari (ko'rsatkichlar, mukofotlar, progressni kuzatish) talabalarning ichki motivatsiyasini kuchaytiradi. Deci va Ryan (2000) ning o'z-o'zini belgilash nazariyasiga ko'ra, zamonaviy didaktik vositalar muhtojliklarning uchta asosiy turiga – avtonomiya, kompetentlik va tegishlilik ehtiyojiga – javob beradi va shu orqali o'z-o'zidan motivatsiyani oshiradi.

Faoliyat mexanizmi jihatidan, Leontev faoliyat nazariyasi asosida zamonaviy didaktik vositalar kasbiy faoliyatning haqiqiy modelini yaratish imkonini beradi. Simulyatorlar va virtual laboratoriyalar kasbiy vazifalarni xavfsiz muhitda mashq qilish imkonini beradi, bu esa kasbiy ko'nikmalarning shakllanishini tezlashtiradi.

Gender aspektida olingan natijalar adabiyotdagi tadqiqotlar bilan mos keladi: zamonaviy raqamli vositalar texnik yo'nalishlarda qiz talabalar uchun psixologik to'siqlarni kamaytiradi (OECD, 2021). Xotin-qizlar o'ziga xos o'quv uslublari (hamkorlikka yo'naltirilgan, vizual, muloqotli) zamonaviy interaktiv didaktik vositalar orqali yaxshiroq qondiriladi.

Tadqiqotning cheklovlari sifatida quyidagilarni qayd etish lozim: bitta institution doirasida o'tkazilganligi, samaraning uzoq muddatli ta'sirini baholash uchun kuzatuvning qisqaligini, shuningdek, individual farqlarni (turli ta'lim uslublari, texnologik savodxonlik darajasi) to'liq hisobga olish imkonining cheklanganligini ko'rsatish mumkin.

Tadqiqot natijalari Olmaliq davlat texnika institutining o'quv jarayoniga innovatsion o'zgartirishlar kiritish uchun asos bo'la oladi. Zamonaviy didaktik vositalarni joriy etish nafaqat kasbiy tayyorgarlik sifatini oshiradi, balki talabalar psixologik farovonligini, kasbiy motivatsiyasini va gender tengligini ta'minlashga ham xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqot zamonaviy didaktik vositalar asosida talabalarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishning ilmiy-nazariy asoslarini ko'rib chiqdi va quyidagi asosiy xulosalarga keldi:

Zamonaviy didaktik vositalar (elektron ta'lim platformalari, virtual laboratoriyalar, interaktiv simulyatorlar, gamification elementlari) talabalarning kasbiy kompetentligini an'anaviy metodlarga nisbatan statistik jihatdan sezilarli darajada oshiradi ($p < 0.001$). Zamonaviy didaktik vositalarning kasbiy tayyorgarlikka ta'siri uchta asosiy mexanizm – kognitiv, motivatsion va faoliyat mexanizmlari orqali amalga oshadi va ularning barchasi kasbiy kompetentlik shakllanishiga ijobiy hissa qo'shadi. Gender tahlili shuni ko'rsatadiki, zamonaviy didaktik vositalardan foydalanish qiz talabalar kasbiy motivatsiyasining oshishiga nisbatan kuchliroq ta'sir ko'rsatadi, bu esa texnik yo'nalishlarda gender tengligini ta'minlashning muhim pedagogik mexanizmi ekanligini tasdiqlaydi.

Zamonaviy didaktik vositalardan foydalanish talabalar o'quv stressini kamaytiradi va psixologik farovonligini oshiradi, bu esa ularning kasbiy tayyorgarligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ilmiy-nazariy jihatdan, tadqiqot Vigotskiyning "yaqin rivojlanish zonasini", Deci va Raynning "o'z-o'zini belgilash nazariyasi" va Leontev faoliyat nazariyasining zamonaviy didaktik vositalar kontekstida tasdiqlangan ekanligini ko'rsatdi.

Tavsiyalar: Olmaliq davlat texnika institutida (va boshqa texnik oliy ta'lim muassasalarida) zamonaviy didaktik vositalarni bosqichma-bosqich joriy etish, o'qituvchilarni yangi texnologiyalar bo'yicha malaka oshirish, virtual laboratoriyalar va simulyatsion dasturlarni barcha texnik fanlar uchun joriy qilish hamda gender sezgir pedagogik yondashuvlarni o'quv jarayoniga tatbiq etish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. 488 b.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (2020-yil 23-sentabr). // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2020.
3. Выготский Л.С. Мышление и речь. – Москва: Лабиринт, 1996. 352 с.
4. Bloom B.S. Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals. – New York: Longmans, 1956.
5. Siemens G. Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age // International Journal of Instructional Technology and Distance Learning. 2005. Vol. 2, No. 1. P. 3–10.
6. Deci E.L., Ryan R.M. Self-determination theory and the facilitation of intrinsic motivation // American Psychologist. 2000. Vol. 55. P. 68–78.
7. Sweller J. Cognitive load during problem solving: effects on learning // Cognitive Science. 1988. Vol. 12. P. 257–285.
8. Леонтев А.Н. Деятельность, сознание, личность. Москва: Политиздат, 1975. 304 с.

9. Prensky M. From Digital Natives to Digital Wisdom. California: Corwin Press, 2012. 264 p.
10. OECD. Education at a Glance 2021: OECD Indicators. Paris: OECD Publishing, 2021.
11. UNESCO. Reimagining our futures together: A new social contract for education. Paris: UNESCO, 2023.
12. Selwyn N. Education and Technology: Key Issues and Debates. London: Continuum, 2011. 208 p.
13. Yo'ldoshev B.X. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015. 260 b.
14. Holiqov Q.R. Ta'limda innovatsion yondashuvlar. Toshkent: TDPU, 2019. 184 b.
15. Azimova N.N. Oliy ta'limda raqamli didaktika. Toshkent: Akademiya, 2022. 210 b.
16. Замфир К. Методика оценки трудовой мотивации // Работа и личност. 1990.
17. Kessler R.C. et al. Short screening scales to monitor population prevalences and trends in non-specific psychological distress // Psychological Medicine. 2002. Vol. 32. P. 959–976.
18. Piaget J. The Psychology of Intelligence. London: Routledge, 1950.
19. Элконин Д.Б. Психология развития. – Москва: Академия, 2001. 144 с.
20. Rosenberg M. Society and the Adolescent Self-Image. Princeton: Princeton University Press, 1965.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №4(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.